

### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**Ish haqi.** 2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:


#### Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2023,2024- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m		O‘sish sur‘ati, %
	2023- yil	2024- yil	
<b>Xorazm viloyati - jami:</b>	<b>3 766,0</b>	<b>4 263,7</b>	<b>113,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch sh.	5 074,5	5 890,5	116,1
Xiva sh.	2 975,3	3 508,6	117,9
Bog‘ot	3 035,8	3 365,4	110,9
Gurlan	2 772,9	3 028,0	109,2
Qo‘shko‘pir	2 824,2	3 206,2	113,5
Urganch	3 337,2	3 730,0	111,8
Hazorasp	2 790,2	3 048,8	109,3
Tuproqqal‘a	5 434,5	5 503,7	101,3
Xonqa	3 040,4	3 353,3	110,3
Xiva	2 939,8	3 504,6	119,2
Shovot	2 912,5	3 230,2	110,9
Yangiariq	3 607,6	4 010,4	111,2
Yangibozor	2 535,6	3 063,6	120,8

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 5 890,5 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,2 %), Tuproqqal‘a tumanida 5 503,7 ming so‘mni (129,1 %) tashkil etgan bo‘lsa, Gurlan tumanida 3 028,0 ming so‘mni (71,0 %), Hazorasp tumanida 3 048,8 ming so‘mni (71,5 %), Yangibozor tumanida 3 063,6 ming so‘mni (71,9 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega


## Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023-2024 yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



## Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi va viloyatga nisbatan foizi.

(2024- yil yanvar-dekabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)




**Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**  
(2024- yil yanvar- dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Sohalar nomi	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- dekabr)		O‘shish sur‘ati, %
	2023- yil	2024- yil	
<b>Xorazm viloyati - jami:</b>	<b>3 766,0</b>	<b>4 263,7</b>	<b>113,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	4 299,4	4 484,8	104,3
Qurilish	3 918,6	5 173,6	132,0
Savdo	2 833,1	3 396,2	119,9
Tashish va saqlash	7 463,7	8 944,9	119,8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 143,0	1 857,7	86,7
Axborot va aloqa	7 735,6	7 825,9	101,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	10 971,0	13 156,2	119,9
Ta‘lim	2 965,4	3 437,4	115,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	3 272,2	3 700,8	113,1
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 689,6	3 107,7	115,5
Boshqa faoliyat turlari	4 259,0	4 971,4	116,7


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 263,7 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **13,2** % ga o‘shishi kuzatildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘shish sur‘ati qurilishda - 32,0 %, savdoda – 19,9 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 19,9 %, tashish va saqlash faoliyatida – 19,8 %, ta‘lim – 15,9 %, San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish – 15,5 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda –13,1 %, sanoatda– 4,3 %, axborot va aloqada– 1,2 % darajada kuzatildi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati**  
(2024- yil yanvar-dekabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, foizda)



**Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar- dekabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**



2024- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 484,8 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020- yilning huddi shu davrida 2 667,6 ming so‘mni, 2021- yilda 3 112,3 ming so‘mni, 2022- yilda 3 715,8 ming so‘mni, 2023- yilda 4 299,4 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yillarga nisbatan 168,1 % darajada ko‘paygani kuzatildi.

**Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni**  
(2024- yil yanvar-dekabr, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)




**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi.**

(2024- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln so'm	Ortacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Xorazm viloyati – jami:</b>	<b>142 208</b>	<b>7 276 021,4</b>	<b>4 263,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	20 507	1 103 645,8	4 484,8
Qurilish	2 368	147 011,8	5 173,6
Savdo	960	39 123,9	3 396,2
Tashish va saqlash	4 089	438 906,9	8 944,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	163	3 633,7	1 857,7
Axborot va aloqa	777	72 968,6	7 825,9
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 418	381 741,3	13 156,2
Ta'lim	65 546	2 703 663,9	3 4374
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 668	1 139 912,1	3 700,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 968	73 390,3	3 107,7
Boshqa faoliyat turlari	17 744	1 172 023,1	4 971,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, **sanoatda** – 20 507 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 103 645,8 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 484,8 ming so'mni, **qurilishda** – 2 468 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 147 011,8 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 173,6 ming so'mni, **savdoda** – 960 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 39 123,9 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 396,2 ming so'mni, **tashish va saqlashda** – 4 089 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 438 906,9 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 944,9 ming so'mni, **axborot va aloqada** – 777 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 72 968,6 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 825,9 ming so'mni, **moliyaviy va sug'urta faoliyatida** – 2 418 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 381 741,3 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 13 156,2 ming so'mni, **ta'limda** - 65 546 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 2 703 663,9 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 437,4 ming so'mni, **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 668 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 139 912,1 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 700,8 ming so'mni, **san'at, ko'ngil ochish va dam olish** -1 968 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 73 390,3 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 107,7 ming so'mni tashkil etgan.

## Qurilish sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va oʻsish surʻati (2024- yil yanvar-dekabrda qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqining yanvar-dekabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi, *ming soʻm*




2024- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 173,6 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, huddi shu davr 2020- yilda 2 485,3 ming soʻmni, 2021- yilda 2 975,7 ming soʻmni, 2022- yilda 3 061,7 ming soʻmni, 2023- yilda 3 918,6 ming soʻmni tashkil qilgan va oʻtgan yillarga nisbatan 2,8 martaga oshgani kuzatildi.

**Tashish va saqlash sohasida 2024-yilning yanvar-dekabrda o‘rtacha tashish va saqlash sohasida ishlovchi xodimlar soni, ish haqi fondi va o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori**

1	2	3
Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln. so‘m	O‘rtacha ish haqi, ming so‘m
<b>4 089</b>	<b>438 906,9</b>	<b>8 944,9</b>

**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**



2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashish va saqlash sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 944,9 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, huddi shu davr 2020- yilda 4 217,7 ming so‘mni, 2021- yilda 4 754,8 ming so‘mni, 2022- yilda 6 480,5 ming so‘mni, 2023- yilda 7 463,7 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yillarga nisbatan 2,1 marta ko‘paygani kuzatildi.



## Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)


(2024-yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	Viloyatga nisbatan foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 437,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch sh.	5 176,8	150,6
Xiva sh.	3 444,2	100,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	3 122,7	90,8
Gurlan	2 841,2	82,7
Qo'shko'pir	2 874,8	83,6
Urganch	3 068,3	89,3
Hazorasp	2 939,4	85,5
Tuproqqal'a	2 722,1	79,2
Xonqa	3 277,2	95,3
Xiva	3 018,1	87,8
Shovot	3 030,2	88,2
Yangiariq	3 657,4	106,4
Yangibozor	2 896,9	84,3

Ta'lim sohasida jami 65 546 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 437,4 ming so'mni tashkil etgan va 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ga o'sdi.

### Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(2024-yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



## **STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR**

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti**- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.